

NATIONAL SONGS AS A SPIRITUAL NEED

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810865>

Asilbek Qolqanotov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
San'atshunoslik va madaniyatshunoslik kafedrası
tayanch doktoranti*

Abstract

This article analyzes the role of national songs in today's world and discusses ways to enhance their socio-spiritual significance. Writing in a creative non-fiction (literary-journalistic) style, the author shares personal perspectives and reflections based on life experiences.

Keywords

national songs, spiritual need, creator, listeners.

MILLIY QO'SHIQLAR MA'NAVIY EHTIYOJ

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy qo'shiqlarimizning bugungi kunda tutgan o'rni va ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Muallif badiiy publitsistika uslubida o'zining sub'ektiv qarashlari va hayotiy xulosalari bilan o'rtoqlashadi.

Kalit so'zlar

milliy qo'shiqlar, ma'naviy ehtiyoj, ijodkor, tinglovchilar.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПЕСНИ – ДУХОВНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Аннотация

В данной статье анализируется роль национальных песен в современном обществе и вопросы повышения их социально-духовной значимости. Автор в художественно-публицистическом стиле делится своими субъективными взглядами и жизненными выводами.

Ключевые слова

национальные песни, духовная потребность, творческая личность, слушатели.

Kechasi bilan ko‘zimga uyqu kelmadi. Xayollar girdobida soat allamahal bo‘lganini ham sezmadim. Noiloj, bir oz toza havodan nafas olib kelay deya tashqariga yo‘l oldim. Toshkentning Mirzo Ulug‘bek tumanida ijarada turaman. Qisqa vaqt ichida bu yerlar men uchun xuddi o‘zim tug‘ilib o‘sgan Kegeyli tumani kabi qadrdon bo‘lib ulgurgan. Tungi sayr asnosida ijara uyim yaqinidagi milliy taomlar kafesi oldida bir zum to‘xtab qoldim. Soat allaqachon yarim tundan oshgan bo‘lsa-da, kafe ichi odamlar bilan gavjum edi. Ushbu maskan kechayu kunduz ishlaydi va uning xo‘randalari hech kamaymaydi. Bu manzaraga termilib turib, o‘yga toldim: xalqimiz baribir o‘zligimizga xos, asriy an‘analar bilan sayqal topgan milliy taomlarni sog‘inadi, ularni sevib iste‘mol qiladi. Sog‘inch esa qon-qonimizga singib ketgan madaniy xotiraning bir ko‘rinishidir.

Men bugungi kunda yoshlarimizning “Sog‘lom ma‘naviy ehtiyoj taomnomasida” asosan, xorij san‘atiga taqlid asosida tayyorlangan, yengil-yelpi “madaniy taomlar” ustunlik qilayotganidan tashvishdaman. Bu jarayon shunchaki did o‘zgarishi emas, balki millatning ma‘naviy immuniteti zaiflashib borayotganidan dalolatdir. O‘zim faoliyat yuritadigan, mamlakatimizning yetakchi san‘at oliygohlaridan birida bu masala tez-tez muhokamalar markazida bo‘ladi. Ustozlarimiz, sohaning zabardast olimlari yoshlarni asl o‘zligimiz, milliy san‘atimizning chinakam qadrdlovchisi qilib tarbiyalash yo‘llarini izlab, tinimsiz bosh qotirmoqda. Ammo, meningcha, bu juda murakkab va osonlikcha uddalanadigan vazifa emas. Negaki, san‘at daraxtini biz — yoshlar qanday silkitayotgan bo‘lsak, u ham harakatlarimizga yarasha “meva” bermoqda. Ya‘ni san‘atga qanday munosabatda bo‘lsak, undan shunday aks sado olmoqdamiz.

Soha olimlarining bosh g‘oyasi yoshlarga san‘atni shunchaki vaqtichog‘lik emas, balki tarbiya vositasi sifatida tavsiya etish, uning ortiga yashiringan mazmun va undan hosil bo‘ladigan his-hayajonni to‘g‘ri anglashni o‘rgatishdir. Biroq bugungi kunda milliy san‘atning g‘arblashuvi biz kutgandan da tezroq sodir bo‘lmoqda. Albatta, hech bir san‘at asari abadiy va o‘zgarmas bo‘la olmaydi, ammo milliy san‘atimizning negizlarini, o‘zagini asrab qolish hayotiy zaruratga aylangan. Sababi, bugungi yoshlar milliy estrada san‘atimizning g‘ala-g‘ovur, janr jihatdan pala-partish, mazmunan sayoz bir davrida tinglovchi sifatida shakllanib qoldi. Bunda endi televideniye yoki radioni ayblash deyarli befoyda. Chunki yoshlar allaqachon bu an‘anaviy axborot vositalaridan uzoqlashib, o‘z virtual olamini yaratib ulgurgan.

Ular ijtimoiy tarmoqlar va internet saytlari orqali “ma‘naviy ehtiyoj”larini bemalol qondirmoqda.

Bu raqamli dunyoning algoritmlari esa chuqur mushohada, badiiy yuksaklikdan ko‘ra, ko‘proq shov-shuvga, yorqinlikka, tezkor reaksiyaga (layk va

repostga) asoslanadi. Natijada san'atkorlar ham ijodiy izlanishdan, murakkab asarlar yaratishdan ko'ra, ana shu algoritmlarga mos keladigan, tez ommalashadigan mahsulot ishlab chiqarishga o'tib olmoqda. Afsuski, ko'plab san'at vakillarimizning ijodiy parvozi "to'ydanda pul topish" tashvishi atrofida cheklanib qolayotgani ham sir emas. Qaysi xalqning san'atkori o'z ijodini bozor talablariga, to'yxonalarning sayoz didiga moslasa, o'sha xalqning san'ati ruhsiz va bezavol bo'lib qolishi muqarrar. Bunday uzluksiz salbiy o'zgarishlar jamiyatda ishonchsizlik, ikkilanish va hatto "Milliy san'at endi rivojlanmaydi", degan tushkunlik kayfiyatini yuzaga keltirmoqda. Bu holat menga rus faylasuf-shoiri Fyodor Tyutchevning XIX asrdayoq aytgan so'zlarini yodga soladi: "Bugungi kunda buzqlikka uchragan narsa tana emas, balki ruhdur".

Haqiqatan, bugungi yengil-yelpi, mazmunsiz, yot madaniyatga taqlidan yaratilgan qo'shiqlar yoshlarning tanasiga emas, bevosita ruhiyatiga, ongiga zarba bermoqda. Estrada — ommaviy va ruhga eng tez ta'sir qiluvchi san'at. Uning saviyasi va sajiyasining tushishi milliy o'zlikka putur yetkazishi, yoshlarning ma'naviy immunitetini keskin zaiflashtirishi aniq. Ilmiy-amaliy anjumanlarda ustozlarimiz bilan bu mavzularda ko'p suhbatlashamiz. Yaqinda bo'lib o'tgan shunday tadbirlarning birida O'zbekiston xalq hofizi, professor Orol Safarov domlaning aytgan tanqidiy fikrlari amaliyotda qo'llashga loyiq ilmiy xulosa bo'ldi. Ustoz bunday dedi: "Afsuski, o'zimizning boy va mazmunli milliy musiqamiz televideniye va radio orqali xalq eshitadigan, dam oladigan paytlarda targ'ib qilinmayapti. Aksincha, yoshlar eshitadigan kunduzgi vaqtlarda zamonaviy hamda xorijiy musiqalarning tinimsiz efirga uzatilishi natijasida yoshlar g'arbona qadriyatlarga ergashishga moyil bo'lib qolmoqda". Demak, sifatli milliy musiqa ham to'g'ri vaqtda, to'g'ri usulda targ'ib qilinsa, unga bo'lgan talabni shakllantirish mumkin. Agar yoshlar o'z milliy musiqalarini tinglamasa, ular asta-sekin o'z ildizlaridan — madaniy va ma'naviy asoslaridan uzoqlashib boradi.

Bu esa kelajakda milliy musiqa ijrochilari, bastakorlari va hatto biz kabi tadqiqotchilarning ham yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin.

Haqiqiy san'at asari shaxsni ma'naviy barkamollikka yetaklashi kerak. U insonparvarlik va odamiylik ruhida, shaxsning ijodkorlik qobiliyati orqali rivojlanadi. Lekin tan olish kerakki, tinglovchilar ham milliy estrada san'atining shakllanishi va rivojiga bevosita sababchidir. San'atkor o'z asarini yaratadi, biroq u tinglovchisiz yashay olmaydi. Eng mashhur ijodkor ham tinglovchilarning reaksiyasini, talabini hisobga oladi va o'z yo'nalishini shunga qarab belgilaydi.

Bir necha o'n betlik ilmiy ma'ruzani ko'pchilik birday qabul qilmasligi, uning mag'zini chaqmasligi mumkin. Lekin bor-yo'g'i 2-3 daqiqali qo'shiq orqali ko'pchilikni bir zumda tinglovchiga aylantirish mumkin. Chunki kuy va ijro orqali

yetkazilgan g'oya aqlga emas, to'g'ridan to'g'ri hissiyotga ta'sir etgani uchun tez va samarali qabul qilinadi. Bugungi kunda san'at sohasida tinglovchi madaniyati darajasining pasayishi nafaqat yoshlar orasida, balki jamiyatning barcha qatlamlarida yaqqol sezilmoqda. Eng achinarlisi, jamiyat bu holatga, ruhiy tanazzulga, axloqqa zid hodisalarga asta-sekin ko'nikib bormoqda. Olimlarning bu holat oxir-oqibat ma'naviy qashshoqlikka olib kelishi mumkinligi haqidagi bonglariga esa deyarli jiddiy e'tibor bermayapmiz. Agar jamiyat ma'naviy qashshoqlikka rozi bo'lib, unga ko'nika boshlasa, hech qanday tashqi rivojlanish, iqtisodiy yuksalish uni bu inqirozdan qutqara olmaydi. Xulosa qilib aytganda, biz muammoning yechimini faqat san'atkorlardan yoki davlat tashkilotlaridan izlamasligimiz kerak.

Sog'lom ma'naviy ehtiyojni jamiyatning o'zi shakllantirmas va talab qilmas ekan, milliy estradada yuksak badiiy darajadagi asarlar yaratilishi amrimahol. San'atkor — ijod mahsulini yaratuvchi, xalq esa baholovchi va yo'nalishni belgilovchi bosh kuchdir. Biz, tinglovchilar, milliy san'atimizda haqiqiy, badiiy durdonalarning yaratilishiga sababchi bo'lishimiz kerak. San'atkorlarning ma'nan yuksak qo'shiqlar yaratishi uchun, ayniqsa, biz — yoshlar chuqurroq mazmunli asarlarni talab qilishimiz kerak. Yaxshi qo'shiqlar ko'payishi uchun ularni tinglashimiz, targ'ib qilishimiz, sifatsizlariga esa munosabatimizni bildirib, ularni inkor eta olishimiz shart. Zero, san'atkor xalq qalbini aks ettiruvchi ko'zgudir. Qalbdagi ehtiyoj qanday bo'lsa, san'at ham shunga moslashib, shuni aks ettiraveradi. Bizning vazifamiz ana shu qalb ehtiyojini yuksaltirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. XOLMO'MINOV, M. M., & QOLQANATOV, A. YANGI O'ZBEKISTONDA MADANIYAT MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari*.
2. Saparbayeva, G., & Qolqanatov, A. (2021). OMMAVIY BAYRAMLARNI TASHKIL ETISHDA SSENARIYNAVISLIKNING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (8), 16-21.
3. Xolmo'Minov, M. M., & Qolqanatov, A. (2023). HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI. *World of Philology*, 2(1), 59-64.
4. Kholmuminov, M., & Qolqanatov, A. (2021). The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population. *image*, 4(12), 146-151.

5. Xolmo'Minov, M. M., & Qolqanatov, A. (2022). Mufassal mushohadalar me'moridan mufassal mushohadalar meroji. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 568-580.
6. Zokirovich, M. K., & Nazarbaevich, A. K. (2022). A Look at the History of Club Establishments and Cultural and Educational Process in Uzbekistan. *JournalNX*, 8(2), 9-15.
7. Kalkanatov, A., Makhamatdinov, S., & Urazbaev, I. (2023). Activities of new Karakalpakstan cultural centers: Reform and analysis. *Art and Design: Social Science*, 3(1), 1-4.
8. Юлдашева, М., & Колканатов, А. (2022). OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY VA MADANIY MARKETING. *Farg'ona davlat universiteti*, (3), 6-6.
9. Abatbaevna, S. G., & Nazarbaevich, Q. A. (2023). History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan.
10. Xolmo'Minov, M. M., & Qolqanatov, A. (2022). O'ZBEKISTONDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN). *Oriental Art and Culture*, 3(1), 281-290.
11. ЮЛДАШЕВА, М., & КОЛКАНАТОВ, А. (2023). ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ. *Journal of Culture and Art*, 1, 16-20.
12. QOLQANATOV, A. (2023). "O 'ZBEKKONSERT" DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL. *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR*, 12, 8-14.
13. Yuldasheva, M., & Qolqanatov, A. (2022). O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI. *Oriental art and culture*, 3(1), 254-260.
14. Yuldasheva, M. B., & Qolqanatov, A. N. (2024). Kadrlar potentsiali ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishshning yetakchi omili sifatida. *Inter education & global study*, (8), 58-68.
15. Kolkhanatov, A. (2023). IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2, 67-69.
16. QOLQANATOV, A. (2024). MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN. *News of UzMU journal*, 1(1), 1.
17. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 65-70.

18. Kalkanatov, A. (2023). PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2, 19-23.
19. Kalkanatov, A. (2023). THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 7-10.
20. Nazarbaevich, Q. A. (2025). FORMATION OF THEORY AND PRACTICE OF CREATIVE ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF CULTURE AND ART. *SHOKH LIBRARY*, 1(13).
21. Kolkhanatov, A. (2025). The Need to Improve the Performance of Cultural Centers. *Turkology*, (2).
22. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
23. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
24. Nazarbaevna, Q. A., & Saliyevna, Y. Z. (2025). SPECIFIC FEATURES AND CHALLENGES OF TEACHING AMATEUR CHOREOGRAPHY TO STUDENTS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 3(10), 95-103.